

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqto'v Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZIYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

CHANGES IN DEMOGRAPHY AND CLASSIFICATION OF URBAN PLACES (IN THE EXAMPLE OF KASHKADARYA REGION)

Polvonov Kozimbek Naimovich,

Associate Professor of the Department of History of Uzbekistan,

Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

E-mail: kozimbekpolvonov6@gmail.com

Baratov Otabek Aripovich

Karshi State University

Master of the Department of History of Uzbekistan

Abstract. This article discusses the demographic situation and classification of the cities of Kashkadarya region in the 1970s-1990s. In particular, the factors affecting the growth of the population of regional cities in the 70s-80s of the 20th century, gender, ethnic composition and demographic situation are presented. At the same time, the classification of oasis cities for 1970, 1979, 1989 and 1990 was developed in the form of tables and diagrams. During the research years, cities were divided into the largest, large, large, medium and small cities, and it was proved that regional cities fall into the category of small, medium and large cities, consisting mainly of small cities. Also, information is provided about the division of cities into cities of republican, regional, district subordination, and oasis cities subordinate to the region and district in this category, which are analyzed in detail.

Keywords: Kashkadarya region, city, cities, demography, classification, population census, population, nationality, city category, small city, medium-sized city, large city.

SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Polvonov Kozimbek Naimovich,

Qarshi davlat universiteti

O'zbekiston tarixi kafedrası dotsenti,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Baratov Otabek Aripovich

Qarshi davlat universiteti

O'zbekiston tarixi kafedrası magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati shaharlarining 1970-1990 yillardagi demografik holati va klassifikatsiyasi haqida so'z yuritiladi. Jumladan, XX asrning 70-80 yillarida viloyat shaharlari aholisi sonining o'sishi, jins, millatlar tarkibi va demografik holatga ta'sir etgan omillar keltirilgan. Shu bilan birga, voha shaharlarining 1970, 1979, 1989 va 1990 yillardagi toifasi jadval va diagramma ko'rinishida ishlab chiqilgan. Tadqiqot yillarida shaharlar eng yirik, yirik, katta, o'rta va kichik shaharlar turkumiga ajratilib, viloyat shaharlari kichik, o'rta va katta shaharlar toifasiga kirishi, asosan kichik shaharlardan iborat ekanligi dalillangan. Shuningdek, shaharlar – respublika, viloyat, tuman bo'ysunuvidagi shaharlarga bo'linishi va bu toifadagi viloyat va tumanga bo'ysunuvchi voha shaharlari haqida ma'lumotlar berilib, ular atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, shahar, shaharlar, demografiya, klassifikatsiya, aholi ro'yxati, aholi soni, millat, shahar toifasi, kichik shahar, o'rta shahar, katta shahar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N04>

Kirish. O'zbekiston aholisi yillar davomida ko'payib bormoqda va demografik holatiga turli omillar ta'sir ko'rsatib kelgan. Respublikaning janubiy hududida joylashgan Qashqadaryo viloyatida 12 ta shaharlar joylashgan bo'lib, bu shaharlar sovet davrida xususan, Qarshi 1926-yilda, Shahrisabz 1929-yilda, vohaning boshqa kentlari 1972-1982-yillarda shahar maqomiga sazovor bo'lgan edi. Shaharlar demografiyasidagi o'zgarishlar ko'pgina sohalar bilan bog'lanadi va jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Shaharlar aholi soniga ko'ra turkumlanadi. Bu holat fanda klassifikatsiya deb nomlanib, lotincha "classis – turkum" va "fasio — bo'laman" "turkumga bo'laman" degan ma'noni bildiradi[1]. Shaharlarni o'rganishda ularning katta-kichikligini bilish muhim hisoblanadi. Kelajakda ijtimoiy infrastruktura obyektlarini joylashtirishda shaharlar klassifikatsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Qashqadaryo viloyati shaharlarining 1970-1990-yillardagi demografiyasi va klassifikatsiyadagi o'zgarishlar jarayoni ilmiylik va tarixiylik tamoyiliga asoslanib, tizimli ravishda tahlil etilgan. Shuningdek, to'plamlarda berilgan ma'lumotlarga tayangan holda statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Qashqadaryo viloyati shaharlarining demografik tarixi ko'pgina tadqiqotlarda o'z aksini topgan. E.Ahmedov (O'zbekiston shaharlari. –Toshkent: O'zbekiston, 1991.), N.Bobojonova (O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80 yillar misolida). –Toshkent: Sharq, 1999.), A.Tog'ayeva (O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari va shahar madaniyati muammolari (1950-1990 yillar). –Toshkent: Yangi nashr, 2017.), K.Polvonov (Qashqadaryo vohasi shaharlari tarixi (1970-2021 yillar). –Toshkent: Tamaddun, 2022.) kabilarning tadqiqotlarida mavzuga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Ushbu tadqiqot davomida vohadagi kichik shaharlar bilan birgalikda katta shaharlarning demografiyasi va klassifikatsiyasi, shaharlarning ko'p millatli aholiga aylanishiga sabab bo'lgan holatlar, ularning mazmun-mohiyati ochib berildi va tahlil qilindi.

Muhokama. XX asrning 60-70-yillarida O'zbekistonda cho'l hududlarini o'zlashtirish borasida ishlar amalga oshirila bordi. Xususan, Qashqadaryo viloyatida Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi vohaning iqtisodiy salohiyatiga katta ta'sir etgan jarayonlardan biri bo'ldi. Cho'lining o'zlashtirilishi natijasida paxtachilik maydonlari kengayib, zavod va fabrikalarning qurilishi jadallashdi hamda yangi ish o'rinlari paydo bo'ldi. Yangi qurilgan, qurilayotgan zavod va fabrikalarda malakali mahalliy ishchi-kadrlarga bo'lgan ehtiyoj mavjud bo'lib, ana shu ehtiyojni ta'minlash maqsadida O'zbekistonga sovet davlatining markaziy hududlaridan "mutaxassislar"ning ko'plab ko'chirilib keltirilishi aholi sonining, ayniqsa shahar aholisining keskin ko'payishiga olib keldi[2]. Shu bilan birgalikda, Qashqadaryo viloyatining tog'li hududlaridan, jumladan, Qamashi, Dehqonobod, Chiroqchi, Yakkabog', Kitob tumanlari aholisi Qarshi cho'liga ko'chirilib keltirildi va aholisi soni ortdi hamda shaharlardagi tabiiy ko'payish aholi sonining ortishiga sabab bo'ldi.

O'zbekistonda sovet davrida aholini ro'yxatdan o'tkazish olti marotaba – 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989-yillarda amalga oshirilgan va aholi soni ko'payib bordi. 1970-yilda Qashqadaryo viloyatida ikkita aholi maskani – Qarshi va Shahrisabz shahar maqomida bo'lgan. Bu paytda Qarshi (71,1 ming) va Shahrisabz (27,3 ming) shaharlarida 98,4 ming aholi istiqomat qilgan edi. Viloyatda shaharlar miqdori va ulardagi aholi soni ko'payib bordi. Keyingi yillarda aholi sonining ancha ortib borishi statistik to'plamlarda o'z aksini topgan. Sovet davrida

1979-yil 17-24-yanvar va 1989-yil 12-19-yanvar kunlari Butunittifoq aholi ro'yxati olingan bo'lib, bu haqidagi statistik ma'lumotnomalarda[3] viloyat shaharlarida aholi soni o'sib borganligini ko'rish mumkin.

Olingan natijalar va ularning tahlili. 1979 va 1989-yillarda viloyat markazi Qarshi va Shahrisabz shaharlari aholisi 1.4 martaga ko'paygan. Asosan, tabiiy ko'payish natijasida aholi soni ortib borgan. Sovet davrining so'nggi yillarida ikkala shahar aholisi yanada ko'paydi. 1990-yilda viloyat markazi Qarshi shahrida 180.8 ming aholi bo'lsa, Shahrisabz shahrida esa 55.0 ming aholi istiqomat qilgan[4].

Vohada ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi va yangi yerlarning o'zlashtirilishi natijasida aholi maskanlarining qiyofasi o'zgardi. Qator aholi maskanlari — Beshkent, Koson, Kitob, Muborak, Talimarjon, Chiroqchi, Yakkabog', Yangi Nishon, Qamashi, G'uzorga shahar maqomi berildi. Yangi tashkil etilgan shaharlarda aholi soni ham o'sib borgan.

Statistik ma'lumotda keltirilishicha, shaharlarda aholi soni turlicha bo'lganligini keltirish mumkin. Tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladigan aholi maskanlarida aholi soni ko'pligi bilan, aksincha, cho'lni o'zlashtirilishi natijasida paydo bo'lgan shaharlar aholisi soni kamligi bilan ajralib turgan. 1989-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, vohadagi kichik shaharlar orasida, aholi sonining ko'pligi jihatidan Koson va Kitob shaharlari ustun turgan. Kosonda 40 680 nafar, Kitob shahrida 28 566 nafar aholi istiqomat qilgan.

Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi natijasida Yangi Nishon va Talimarjon shaharlariga asos solingan edi. Bu shaharlar aholisi soni kichik shaharlar orasida kamligi bilan ajralib turgan. 1989-yilda Yangi Nishon shahrida 7 471 nafar va Talimarjon shahrida 6 712 nafar aholi yashagan.

Quyidagi jadvalda keltirilganidek, Qashqadaryo viloyatida shaharlar aholisi soni ko'payib borganligini ko'rish mumkin. Shaharlarda o'sish holati turlicha bo'lgan va bunga yangi ish o'rinlarining yaratib borilganligini aholi sonining o'sishiga sabab sifatida ko'rsatiladi. Aholi ro'yxati o'tkazilgan 1979 va 1989-yillarda shaharlarning o'sish ko'rsatkichlari taqqoslanganda quyidagicha bo'ldi: eng yuqori holat Muborak (2.1) va Beshkent (1.9) shaharlarida bo'lsa, past ko'rsatkich Talimarjon (1) shahrida bo'ldi.

Qashqadaryo viloyati shaharlari aholisi sonining o'sishi[5]

№	Shaharlar		1970	1979	1989	1979 va 1989 yy o'sish ko'rsatkichi (marta)	1990
1	Qarshi		71.1	107404	154707	1.4	180.8
2	Shahrisabz		27.3	36472	52453	1.4	55.0
3	Koson		-	28313	40680	1.4	40.0
4	Muborak		-	9231	19947	2.1	40.0
5	Talimarjon		-	6687	6712	1	10.0
6	Kitob		-	18491	28566	1.5	30.0
7	G'uzor		-	12670	17032	1.3	21.0
8	Beshkent		-	6006	11562	1.9	12.0
9	Qamashi		-	15678	22307	1.4	22.0
10	Yakkabog'		-	12098	17191	1.4	16.0
11	Chiroqchi		-	(8428)	13275	(1.5)	12.0
12	Yangi Nishon		-	(3979)	7471	(1.8)	7.0

Kichik shaharlarning aholisi soni ko'payib borsa-da, ammo viloyat shaharlari miqyosidagi, ya'ni, foiz hisobidagi ko'rsatkichi kamaygan. 1979-yilda viloyat aholisining 10,2 foizi, 1989-yilda 8,6 foizi "yangi" shaharlarda istiqomat qildi. Bu viloyatda shahar aholisiga nisbatan qishloq aholisining ko'payish ko'rsatkichi yuqorilab borganini bildiradi. Umuman, 1989-yilda ko'rib chiqilayotgan shaharlarda jami aholi soni 184 ming 743 kishini tashkil etgan[6].

Qashqadaryo viloyatida 1970-yilda 2 ta shaharlarda – Qarshi va Shahrisabz shaharlarida 98.4 ming kishi istiqomat qilgan. Yillar davomida aholi soni turli omillar sababli ortib bordi. Viloyatda yangi ish o'rinlarining ortishi aholining o'sishiga sabab bo'lganligini alohida ta'kidlash mumkin. 1990-yilga kelib, viloyatdagi 12 ta shaharlarda 445.8 ming aholi istiqomat qildi. Umuman, viloyatda shaharlar soni va ulardagi aholi soni ortib bordi.

Sovet davrida O'zbekiston shaharlari aholisining jins tarkibida ham muayyan o'zgarishlar bo'ldi. Aholi ro'yxati o'tkazilgan yillarda, ya'ni, 1979 va 1989-yillarda viloyat markazi Qarshi shahri aholisi sonida erkaklarning ulushi ko'pligi bilan ajralib turganligini ta'kidlash mumkin. Mazkur yillarda Shahrisabz shahrida esa ayollar sonining ustunligi kuzatiladi.

Viloyatda "yangi" tashkil etilgan shaharlar aholisining jins tarkibi ham turlicha bo'lib, ayollarning jami aholi sonidagi ulushi ortib borgan. Masalan, 1979 yilda Muborak, Talimarjon, Qamashi shaharlarida erkaklar, Koson, Kitob, G'uzor, Beshkent shaharlarida ayollar sonining ustunligi kuzatilgan bo'lsa, faqat Yakkabog' shahrida har ikkala jinsning tengligi kuzatildi.

Qashqadaryo viloyati shaharlari aholisining jinsga oid tarkibi[7]

№	Shaharlar	1979-yil				
		Jami aholi	erkaklar		ayollar	
			soni	%	soni	%
1	Qarshi	107404	55724	51,9	51680	48,1
2	Shahrisabz	36472	17809	48,8	18663	51,2
3	Koson	28313	13983	49,4	14330	50,6
4	Muborak	9231	4955	53,7	4276	46,3
5	Talimarjon	6687	3486	52,1	3201	47,9
6	Kitob	18491	9020	48,8	9471	51,2
7	G'uzor	12670	6271	49,5	6399	50,5
8	Beshkent	6006	2989	49,8	3017	50,2
9	Qamashi	15678	7867	50,2	7811	49,8
10	Yakkabog'	12098	6048	50	6050	50

Oradan o'n yil o'tib, 1989-yilgi aholi ro'yxati ma'lumotiga ko'ra, Beshkent, Koson, Kitob, Talimarjon, Chiroqchi, Yakkabog', Qamashi, G'uzor shaharlarida ayollar ko'pchilikni tashkil etgan, faqatgina Muborak va Yangi Nishon shaharlari aholisi sonida erkaklarning ulushi yuqori bo'ldi.

Qashqadaryo viloyati shaharlarida XX asrning 70-80-yillarida turli millat vakillari istiqomat qildi. Bunga sabab sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1) Ikkinchi jahon urushi yillarida Ittifoqning ba'zi sanoat korxonalarining O'zbekistonga ko'chirilishi va ular bilan birga turli millat vakillarining kelishi;

2) Urush yillarida Ittifoqning Yevropa qismida ota-onasiz qolgan bolalarning muayyan qismi O'zbekistonga ko'chirilishi;

3) Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi bilan ish o'rni ortib borganligi va turli millat vakillarining ishlash uchun kelishi va boshqalar.

Qashqadaryo viloyatida aholi sonida o'zbeklar yetakchi o'rinda bo'lgan, albatta. Jadvalda keltirilganidek, 1990-yilgi aholi sonida o'zbeklardan keyin rus va tojik millatiga mansub kishilar ko'pchilikni tashkil etgan.

Qashqadaryo viloyati aholisining millatlar tarkibi[8]

№	Millatlar	1990 yilda	
		Aholi soni	Jami aholiga nisbatan %
	Viloyat bo'yicha	1643603	-
1	o'zbek	1447637	88.07
2	qoraqalpoq	110	0.006
3	rus	37003	2.251
4	ukrain	4315	0.262
5	belorus	1348	0.082
6	qozoq	1897	0.115
7	ozarbayjon	3298	0.200
8	qirg'iz	215	0.013
9	tojik	82191	5.000
10	turkman	20294	1.234
11	tatar	20383	1.240
12	koreys	1968	0.119
13	boshqa millatlar	22944	1.395

Sovet davrining so'nggi yillarida shaharlar aholisi soniga ko'ra besh turkumga bo'linib, ularda aholi soni quyidagicha belgilangan:

- 1) eng yirik shaharlar – aholisi 500 mingdan ortiq bo'lgan;
- 2) yirik shaharlar – aholisi 250-500 ming kishigacha;
- 3) katta shaharlar – aholisi 100-250 ming kishigacha;
- 4) o'rta shaharlar – aholisi 50 ming kishidan-100 ming kishigacha;
- 5) kichik shaharlar – aholisi 50 ming kishigacha bo'lgan shaharlar[9].

1989-yilda O'zbekistonda 124 ta shaharlar bo'lib, ulardan 101 tasi kichik, 7 tasi o'rta, 12 tasi katta shaharlar (Angren, Buxoro, Jizzax, Marg'ilon, Navoiy, Nukus, Olmaliq, Qarshi, Qo'qon, Urganch, Farg'ona, Chirchiq), 3 tasi yirik shaharlar (Samarqand, Namangan, Andijon), 1 tasi eng yirik (Toshkent) shaharlar toifasiga kirgan[10]. Respublikadagi shaharlarning 81.4 foizi kichik va 5.6 foizi o'rta shaharlar turkumiga kirsa, 9.6 foizi katta shaharlar edi.

Qashqadaryo viloyatida 1970-yilda ikkita hudud – Qarshi va Shahrisabz shahar maqomida bo'lib, Shahrisabz kichik shahar (aholi soni 50 minggacha), Qarshi – o'rta shahar (aholi soni 50-100 minggacha) turkumiga kirgan. Sovet davrida Butunittifoq aholi ro'yxati o'tkazilgan yil (1979 va 1989-yil) larda Qashqadaryo viloyati shaharlari aholisida o'sish kuzatilib, klassifikatsiyasida o'zgarishlar bo'ldi.

Aholisi 50 minggacha bo'lgan kichik shaharlar vohadagi shaharlarning asosiy qismini tashkil etgan. Bunday shaharlar viloyatda 1979 yilda jami 9 tani tashkil etgan bo'lib, bu toifadagi shaharlarga — Beshkent, Koson, Kitob, Muborak, Talimarjon, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, G'uzor shaharlari kirgan. Viloyatdagi shaharlarning 90 foizi shu toifadagi shaharlar sirasiga kirgan edi.

Viloyatda faqatgina Qarshi shahri katta shaharlar (aholisi 100-250 minggacha) turkumiga kirgan. Viloyatdagi shaharlarning 10 foizi bu toifadagi shaharlar edi. Shuningdek, bu paytda o'rta, yirik va eng yirik shaharlar toifasiga kiradigan shaharlar mavjud bo'lmagan. Viloyatda jami shaharlar soni 10 tani tashkil etgan.

Qashqadaryo viloyatida shaharlar va ulardagi aholi soni o'sib bordi. 1989-yilda viloyat shaharlari klassifikatsiyasining ko'rinishi quyidagicha bo'ldi: kichik shaharlar 10 tani tashkil etgani holda, Shahrisabz shahri o'rta va Qarshi shahri esa katta shaharlar toifasiga kirdi. Bu paytda viloyatda shaharlar soni 12 ta bo'lgan.

Qashqadaryo viloyati shaharlari tasnifi (1989-yil)

№	Shaharlar pog'onasi	Aholi soni	Shaharlar toifasi	Qashqadaryo viloyatida
1	I	50 minggacha	kichik shahar	Beshkent, Koson, Kitob, Muborak, Talimarjon, Chiroqchi, Yangi Nishon, Yakkabog', Qamashi, G'uzor
2	II	50 dan 100 minggacha	o'rta shahar	Shahrisabz
3	III	100 dan 250 minggacha	katta shahar	Qarshi
4	IV	250 dan 500 minggacha	yirik shahar	
5	V	500 mingdan ortiq	eng yirik shahar	
	Jami			12 ta

1990-yilda viloyat shaharlarining klassifikatsiyasi 1989-yildagidek bo'lib, o'zgarishsiz qoldi[11].


Adabiyotda berilishicha, shaharlar – respublika, viloyat, tuman bo'ysunuvidagi shaharlarga bo'lingan. Respublika bo'ysunuvidagi shaharlar sirasiga aholisi 500 mingdan ortiq, yirik iqtisodiy, madaniy markaz hisoblangan shaharlar kirgan.

Viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar qatoriga muhim sanoat ahamiyatiga molik, iqtisodiy va madaniy markaz hisoblangan, aholisi 30 ming kishidan kam bo'lmagan shahar yoki shahar posyolkalari kirgan. Ayrim hollarda, sanoat va madaniy-siyosiy jihatdan alohida ahamiyatga ega bo'lgan hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va aholi o'sishi borasida qulay istiqbolga ega bo'lgan shaharlar aholisi 30 mingdan kam bo'lsa ham viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar kategoriyasiga kiritilgan.

Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar qatoriga sanoat korxonalari, kommunal xo'jaligi, davlat turar-joy fondi, rivojlangan ijtimoiy-madaniy tashkilotlari, savdo-sotiq, va umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari mavjud bo'lgan hamda aholisi 7 mingdan kam bo'lmagan shahar va shahar posyolkalari kirgan[12]. Bunday shaharlardagi aholining uchdan ikki qismidan ko'prog'i ishchi va xizmatchilardan iborat bo'lishi lozim bo'lgan.

Qashqadaryo viloyatida viloyatga va tumanga bo'ysunuvchi shaharlar bo'lib, shu maqomda bo'lib keldi. 1990-yilga kelib 5 ta shahar (Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Koson, Muborak)

viloyat bo'ysunuvidagi va 7 ta shahar (Beshkent, Talimarjon, Chiroqchi, Yangi Nishon, Yakkabog', Qamashi, G'uzor) tumanga bo'ysunuvchi shaharlar hisoblangan.



Xulosa. XX asrning 60-70-yillarida Qashqadaryo viloyatida Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi, aholi maskanlarida zavod-fabrikalarning qurilib, ishga tushirilishi shaharlar miqdori va ulardagi aholi sonining sezilarli darajada o'sishiga sabab bo'ldi. Aholi ro'yxati o'tkazilgan 1979, 1989-yillarda voha shaharlari aholisi soni ortdi. Tadqiqot yillarida shaharlar aholisi tarkibida erkaklarga nisbatan ayollarning ulushi yuqori bo'ldi. Viloyat shaharlarida turli millat vakillari istiqomat qilib, aholining milliy tarkibida o'zbeklardan keyin tojik va rus millatiga mansub kishilar ko'pchilikni tashkil etgan.

1970-1990-yillarda viloyat shaharlari klassifikatsiyasida juda katta o'zgarishlar bo'lgan. Aholi soni 50 minggacha bo'lgan kichik shaharlar 1970-yilda bittani tashkil etgan bo'lsa, 1990-yilda 10 ta bo'ldi. Viloyat hududida o'rta (aholi soni 50-100 minggacha) shaharlar soni o'zgarishsiz qolib, bittani tashkil etgan. 1970-yilda katta (aholi soni 100-250 minggacha) shaharlar umuman yo'q edi, 1990-yilga kelib viloyat markazi Qarshi shahri ushbu toifaga kirdi. Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar 1970-yilda 2 ta bo'lgani holda, 1990-yilda ko'payib, 5 taga yetdi. Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar 1970-yilda umuman yo'q edi, 1990-yilda ular 7 tani tashkil etdi.

Shaharlar tarixi qiziqarli va munozarali mavzular sirasiga kiradi. Keltirilgan tarixiy ma'lumotlar O'zbekiston shaharlari tarixiga oid ilmiy bilimlarning yanada ko'payishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4-jild. –Toshkent: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. –B. 632.
2. Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80 yillar misolida). –Toshkent: Sharq, 1999. –B. 123.
3. Perepis naseleniya. –Tashkent, 1980., Perepis naseleniya. –Tashkent, 1991.
4. Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. –Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002. –B. 207.
5. Polvonov K. Qashqadaryo vohasi shaharlari tarixi (1970-2021 yillar). –Toshkent: Tamaddun, 2022. –B. 198.
6. Perepis naseleniya. –Tashkent, 1991. –S. 33-35.
7. Perepis naseleniya. –Tashkent, 1980. –S. 13-15.

8. Jadval Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasining 2019 yildagi bergan ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.
9. Tog'ayeva A. O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari va shahar madaniyati muammolari (1950-1990 yillar). –Toshkent: Yangi nashr, 2017. –B. 15.
10. Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari. –Toshkent: O'zbekiston, 1991. –B. 44.
11. Polvonov K. Qashqadaryo vohasi shaharlari tarixi (1970-2021 yillar). –Toshkent: Tamaddun, 2022. –B. 33.
12. Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari. –Toshkent: O'zbekiston, 1991. –B. 31.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).